



# FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

— Otabek Abdug'anievich Yo'ldoshev <sup>1</sup> —

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi Akademiyasi  
“Tillar”kafedrasi dotsenti, Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti erkin tadqiqotchisi.  
otabek2015@mail.ru

## UMUMTA'LIM MAKtablARI TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDA TEXNOGEN SIVILIZATSİYANING O'RNI

*Annotatsiya:* Maqola muallifi texnogen sivilizatsiyaning bugungi o'rni hamda uning ta'limgan sohasidagi ta'siri, tarbiyaviy va axloqiy jihatlarini tahlil etgan. Bugungi kunda butun dunyoda texnogen sivilizatsiya asosida ta'limgan yangi shakllarini jadal izlab topish, o'quvchilarga turli maktab fanlarini o'qitishda foydalanish mumkin bo'lgan o'quv maqsadlari uchun dasturiy vositalar ishlab chiqilishi shuningdek, Texnogen sivilizatsiyani ommaviy ta'limga jalb qilish zarurati haqida so'z yuritgan.

*Kalit so'zlar:* axloq, ta'limgan, globallashuv, shaxs, muhit, ijtimoiy muhit, texnogen, sivilizatsiya, texnogen sivilizatsiya

*Аннотация:* Автор статьи анализирует современную роль техногенной цивилизации и ее влияние на образовательный, образовательный и нравственный аспекты. Сегодня стремительный поиск новых форм образования на основе техногенной цивилизации во всем мире, разработка программных средств образовательного назначения, которые можно



использовать для обучения школьников различным школьным предметам, а также необходимость вовлечения техногенной цивилизации в народном образовании.

**Ключевые слова:** этика, образование, глобализация, личность, среда, социальная среда, антропогенная, цивилизация, техногенная цивилизация.

**Abstract:** The author of the article analyzes the current role of man-made civilization and its impact on education, educational and moral aspects. He claims the need to accelerate the search for new forms of education based on man-made civilization around the world, the development of software tools for educational purposes that can be used to teach students various school subjects, as well as the involvement of man-made civilization in public education.

**Keywords:** ethics, education, globalization, personality, environment, social environment, man-made, civilization, man-made civilization

## I. КИРИШ

Mamlakatimiz xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasida «o'qitish usullarini takomillashtirish, ta'lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish, kichik yoshdan o'quvchilarda o'qishga sog'lom, kuchli va ta'sirchan motivatsiyani shakllantirish»[1] kabi muhim vazifalar belgilangan. Keltirilganlarga ko'ra boshlang'ich ta'limda texnogen sivilizatsiya yutuqlarini qo'llashga qaratilgan bilish jarayonini rivojlantirishning didaktik xususiyatlarini aniqlashtirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish ta'lim sifat va samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirishda texnogen sivilizatsiyaning yutuqlaridan foydalanish imkoniyatlarining kengayishiga sabab bo'lmoqda[2]. Texnogen sivilizatsiya – insoniyat tarixining qadimiy faoliyat natijasi bo'lib, ilk bor yer kurrasining g'arbiy mintaqalarida yuzaga kelgan.

XXI asr yangi texnologiyalar bilan birga hayotimizga tez kirib keldi. Axborot va kompyuter texnologiyalarining imkoniyatlari ko'plab o'qituvchilarining



dunyoqarashini kengaytirdi. Texnogen sivilizatsiya jarayonlari hozirgi davrda eng ilg‘or, yangi texnologiyalar asosida ishlab chiqarishni texnik qayta jihozlash, tezkor zamonaviy kommunikatsiya va aloqa vositalari tizimlarining rivojlanishi, ilmiy, texnik hamda odamlar hayoti uchun zarur axborotni yig‘ish va taqsimlash, mehnat unumdorligini ta’minlash uchun qulay sharoit yaratib, bu borada keng imkoniyatlar ochmoqda. Bugungi kunda butun dunyoda texnogen sivilizatsiya asosida ta’limning yangi shakllarini jadal izlab topish, o‘quvchilarga turli mакtab fanlarini o‘qitishda foydalanish mumkin bo‘lgan o‘quv maqsadlari uchun dasturiy vositalar ishlab chiqilmoqda. Texnogen sivilizatsiyani ommaviy ta’limga jalb qilish zarurati zarurati yuzaga keldi.

## II. MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Xalq ta’limi vazirligining 2009 yil 11 sentabrdagi «Pedagoglarning ta’limtarbiya sohasidagi eng yaxshi ish tajribalarini o‘rganish, umumlashtirish va ommalashtirish bo‘yicha»[3] 253-sonli buyrug‘iga 14-ilovasida Ta’lim islohotlarining hozirgi bosqichida vazifalarning muvaffaqiyatli hal etilishida ilg‘or ish tajribalarni o‘rganish, umumlashtirish, ommalashtirish va amaliyatga tatbiq qilib borish muhim ahamiyatga ega ekanligi qayd etilib, o‘qituvchilarning ilg‘or ish tajribalarni o‘rganishi va ommalashtirishi ularning kasb mahoratlarini takomillashtirish, ilg‘or ish tajribalarini o‘rganish orqali o‘qituvchining o‘z pedagogik faoliyatiga ijodkorona va novatorlarcha yondashib, o‘quvchilarga ta’limtarbiya berishning yangi yo‘llarini izlab topish vazifalari belgilab berilgan.

Zero, mакtab jamiyatga fuqaroning yangi, intellektual yetuk, innovatsion rivojlangan, kuchli iqtidor ega yangi avlodini yetkazib berishi kerak. Bunday ijtimoiy buyurtmani amalga oshirish xalq ta’limi tizimi mazmunini metodologik jixatdan tubdan o‘zgartirib, boshlang‘ich sinfda texnogen sivilizatsiyadan foydalanishning yangicha pedagogik shart-sharoitlarini ishlab chiqish zaruratini yuzaga keltirdi.

Avvalo, boshlang‘ich ta’lim dars jarayonida texnogen sivilizatsiyadan o‘rinli foydalanish o‘quvchilarning kuzatish, diqqat, nutq va tafakkurini rivojlantirishda



muhim o‘rin tutadi. Boshlang‘ich ta’lim, odatda, bola olti yoki yetti yosha kirganida boshlanadi va 10-11 yoshlargacha davom etadi. Boshlang‘ich ta’lim o‘rtada va oliv ta’limga yo‘l ochib beradi va taraqqiyot mazmunida ustuvor hisoblanadi.[4]. Ushbu maqsadga erishish uchun maktab tizimlari o‘qituvchilar malakasini oshirish, sinfonalar qurish, ta’lim sifatini oshirish, maktabga borishga to‘sinq bo‘layotgan, masalan o‘qish uchun to‘lov imkonsizligi yoki transport tizimining rivojlanmagani kabi omillarni bartaraf etish va ota-onalarning bolalar xavfsizligi xususidagi tashvishlariga javob berishi lozim[5].

### III.TADQIQOT METODOLOGIYASI

Shu bois, an’anaviy ta’limda o‘quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallashga o‘rgatilgan bo‘lsa, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish esa ularni egallayotgan bilimlarini o‘zları qidirib topish, mustaqil o‘rganish va fikrlash, tahlil qilish, hatto yakuniy xulosalarni ham o‘zları keltirib chiqarishga o‘rgatadi. O‘qituvchi bu jarayonda shaxs rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo‘naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Bugungi kunda ta’limda «Aqliy hujum», «Fikrlar hujumi», «Tarmoqlar» metodi, «Sinkveyn», «BBB», «Beshinchisi ortiqcha», «6x6x6», «Bahs-munozara», «Rolli o‘yin», FSMU, «Kichik guruhlarda ishlash», «Yumaloqlangan qor», «Zigzag», «Oxirgi so‘zni men aytay» kabi zamonaviy texnologiyalar qo‘llanmoqda.

Ikkinchidan, o‘qituvchining mashg‘ulotdagi vaqtini tejash va tezkor ravishda ko‘proq ma’lumot berishga erishishga imkoniyat yaratiladi. Fan va texnika jadal rivojlanib borayotgan hozirgi kunda, jamiyat a’zolarining aksariyat qismi turli zararli g‘oya va mafkura tashuvchi axborot xurujlarini baholash ko‘nikmasiga ega emas. To‘g‘rirog‘i, buning uchun ularda texnogen ko‘nikma yetishmaydi. O‘qituvchi va o‘quvchilarning hamkorlikdagi faoliyati natijasida yuzaga keladigan ta’lim jarayonida shaxsning tafakkuri, ma’lumoti va tarbiyasi ham shakllana boradi. Darslarda o‘qituvchi o‘z bilimi, ko‘nikma va malakalarini mashg‘ulotlar vositasida o‘quvchilarga yetkazadi, o‘quvchilar esa uni o‘zlashtirib borishi natijasida undan foydalanish qobiliyatiga ega bo‘ladilar.



Uchinchidan, bolalarning kichik yoshda eslab qolish qobiliyatları yuqori ekanligini hisobga oladigan bo‘lsak, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining texnogen sivilizatsiya vositalari bilan ishslash qobiliyatlarini rivojlantirish maqsadga muvofiq. Aytish lozimki, matn/rasm nisbatida boshlang‘ich mакtabning o‘ziga xos xususiyatlaridan yana biri, vizual ko‘rgazmali vosita ustunlik qiladi. O‘quvchilar matnni shunchaki o‘qiydilar. Ko‘rgazmali, mexanik vositala ularning diqqatni tortib, mashg‘ulotga qiziqishini oshirib, diqqat va e’tiborini mashg‘ulotga qaratishga undaydi va natijada sinfdagi barcha o‘quvchilar faol ishtirok etadilar. Bu texnologiyani o‘qitishning tushuntirish va illustrativ usuli deb qarash mumkin, uning asosiy maqsadi o‘quv materialini muloqot qilish orqali o‘quvchilar tomonidan axborotlarni o‘zlashtirishni tashkil yetish va uning muvaffaqiyatli idrok yetilishini ta’minlashdan iborat bo‘lib, vizual xotira ulanganda takomillashadi. Boshlang‘ich sinf ta’lim-tarbiya jarayonida bola har kuni o‘zi uchun notanish bo‘lgan narsa va xodisalarga duch keladi. Bu bosqichda o‘quvchilar tevarak-atrofdagi narsalar, ularning vazifasi, ba’zi sifatlari va asoslari haqida, ularning qaysi materiallardan tayyorlanganligi to‘g‘risidagi dastlabki tasavvurga, narsa va buyumlar, voqealarning muhim va muhim bo‘lmagan tomonlarini ajrata oladigan, sabab va natijalardagi bog‘lanishlarni bilib oladilar, o‘quv faoliyatining dastlabki kurtaklari shakllanadi. Boshlang‘ich sinf ta’lim-tarbiya jarayoni samadorligini oshirish pedagogdan katta mas’uliyatni talab etib, uning asosiy vazifasi sinflar kesimida qulay tegnogen muhitni yarata olishi bilan belgilanadi. Biz sinflar kesimida ta’lim-tarbiya jarayonida texnogen sivilizatsiya yutuqlarining qo‘llanilishini o‘rganamiz. Sinf o‘qituvchilari ta’lim-tarbiya jarayonida harakatli o‘quv qurollari, elektron doska, audioqurilmalar, videoproyektorlar bilan bir qatorda, dars mavzusi bilan bog‘liq hududga ekskursiya, tabiat qo‘ynida amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etishdan samarali foydalanayotganliklari aniqlandi. Videoproyektor – o‘quv jarayonida qo‘llaniladigan zamonaviy vositalardan biri. Undan foydalanish uchun kompyuter qurilmalari talab etiladi. Oldindan tayyorlangan o‘quv materiallarini kompyuterga ulangan videoproyektor orqali maxsus ekranga taqdimot etish mumkin. Kompyuter xotirasidagi yoki kompakt disk va oddiy disketadagi materiallarni videoproyektor



orqali ta’lim oluvchilarga namoyish qilish mumkin. Videoproyektor kodoskop kabi ta’lim beruvchi uchun eng yuqori darajadagi taqdimot imkoniyatini beradi. Asosiy qulayligi shundaki taqdim etaladigan metariallarni kompyuterda ta’lim beruvchi o‘zi tayyorlashi mumkin yoki professional darajada tayyorlangan elektron dars-likdan foydalanish mumkin.

To‘rtinchidan, tadqiqotlarga ko‘ra, ko‘pchilik odamlar eshitganlarining 5% ini va ko‘rganlarining 20% ini eslaydilar. Audio va video axborotdan bir vaqtida foydalanish hotirjamlikni 40-50% gacha oshiradi. Multimediya dasturlari turli shakllarda axborot beradi va shu tariqa o‘quv jarayoni samaradorligini yanada oshiradi. Muayyan materialni o‘rganish uchun zarur bo‘lgan vaqt o‘rtacha 30% tejaladi va olingan bilimlar xotirada ancha uzoq saqlanadi. Boshlang‘ich sinfda multimedya texnologiyalaridan foydalanilganda dars strukturasi tubdan o‘zgarmaydi. Bu hali barcha asosiy bosqichlarini saqlab qoladi, faqat ularning vaqt xususiyatlari o‘zgaradi. Bu o‘sib kelayotgan yosh avlodni axborot dunyosida yashashga o‘rgatish zamonaviy maktablarning eng dolzarb ustuvor vazifalaridan biridir.

#### IV. TAHLIL VA NATIJALAR

Ta’lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirishda texnogen sivilizatsiya yutuqlaridan oqilona foydalanish borasida 2009-2020 yillar davomida halq ta’limi tizimida olib borilgan islohotlar, modernizatsion jarayonlar natijasida keskin ijobiy o‘zgarishlarni kuzatdik. Shubha yo‘qki, ushbu o‘zgarishlar barkamol avlod ta’lim-tarbiyasi jarayonida uning intellektual qobiliyatlarini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.

Xalq ta’limi vazirligi umumta’lim maktablari uchun Davlat ta’lim standartlariga muvofiq yaratilgan elektron o‘quv vositalari – elektron darsliklar, o‘quv filmlaridan samarali foydalanish va ularni saqlash bo‘yicha metodik tavsiyanoma tasdiqlanib, multimedia umumta’lim dasturlarini rivojlantirish markazi tomonidan Xalq ta’limi sohasida yaratilgan barcha o‘quv-me’yoriy hujjatlar, darslik va o‘quv-uslubiy qo‘llanmalari internet formatiga o‘tkazilgan va vazirlikning



www.eduportal.uz manzili bo‘yicha joylashgan axborot-ta’lim portaliga joylashtirilgan[6]. Shuningdek, bugungi kunda mashg‘ulotlar jarayonida foydalanilayotgan oddiy darsliklarning elektron versiyalarini yaratish va portalga joylashtirish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlarning amaldagi ifodasi sifatida, vazirlik portaliga joylashtirilgan DjVu formatidagi resurslar soni 185 tani tashkil etgan[7]. Shuni ham unutmaslik kerakki, o‘rta ta’limning bu bosqichi o‘quvchilardan ixtiyoriy ravishda ta’lim-tarbiya vosita va uslublarini tanlash, ularning imkoniyat va qiziqishlarini hisobga olgan holda jadal intellektual kasbga yo‘naltirilgan ta’lim olishini ta’minlaydi[8].

## V. XULOSA

Bugunga kelib, umumta’lim maktab o‘quvchilari hali yetarlicha hayotiy tajribaga ega bo‘lmaganliklari sababli ba’zi harakatlarni o‘ylamasdan, uning oqibatini “ko‘ra olmasdan” sodir etadilar. Zero, texnogen sivilizatsiya jarayonlarida yoshlar “ommaviy madaniyat”, millat va yurt uchun butunlay begona bo‘lgan salbiy axborot ta’sirlariga tushib qolish xavfi kuchayadi. Ayniqsa, internet saytlari orqali yaxshi g‘oyalalar bilan birgalikda, diniy ekstremizm, millatchilik, irqchilik, misolida yot, buzg‘unchi g‘oyalarning kirib kelishi mumkinligi masalani yanada murakkablashtiradi. Umuman olganda, rivojlangan davlatlar ta’lim tizimining qiyosiy tahlili misolida boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ta’lim-tarbiya jarayoniga texnogen sivilizatsiyaning o‘rni tahlili shuni ko‘rsatdiki, ta’lim-tarbiya muassasalari turli yosh va uslubiy xususiyatga ega bo‘lsada, maqsad – zamon talablari asosida, yangi texnika va texnologiyalarni mukammal o‘zlashtirgan bilimli, barkamol, tadbirdor yosh avlodni tarbiyalash muhimdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” gi PF-5712-son Farmoni. – Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 06/19/5712/3034-son, 29.04.2019 y.
2. Сорокин П. Человек, Цивилизация, Общество, М. 1992, с 467-6.;
3. Xalq ta’limi vazirligining 2009 yil 11 sentabrdagi «Pedagoglarning ta’lim-tarbiya sohasidagi eng yaxshi ish tajribalarini o‘rganish, umumlashtirish va ommalashtirish bo‘yicha» 253-sonli buyrug‘iga 14-ilovasi. Millennium development goals. New York, United Nations (undated) ([www.un.org/millennium/goals/](http://www.un.org/millennium/goals/), accessed 5 May 2010).
4. Achieve universal primary education. New York, World Bank (undated) (<http://ddpext.worldbank.org/ext/GMIS/gdmis.do?siteId=2&goalId=6&menuId=LNAV01GOAL2>, accessed 5 May 2010).
5. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirining 2009 yil 23 apreldagi 104-sonli “Xalq ta’limi vazirligi tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish samaradorligini yanada oshirish” to‘g‘risidagi buyrug‘i [www.eduportal.uz/](http://www.eduportal.uz/) 2009 йил маълумотлари
6. Mavlyanov A., Abdalova S., Yusupova L. Pedagogik texnologiya, ta’lim jarayoni va sifatini boshqarishga oid ayrim so‘zlarning izohli lug‘ati –Toshkent: 2010. 7-b.